

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**AL – XORAZMIY NOMIDAGI
URGANCH DAVLAT UNVERSITETI**

“O`ZBEK ADABIYOTI” KAFEDRASI

**“Bolalar adabiyoti va folklor”
Fanidan**

**AMALIY MASHG`ULOTLARNI O`TKAZISH BO`YICHA
USLUBIY TAVSIYANOMA**

**Bakalavryatning BT va STI ta'lim yo`nalishi talabalari
uchun mo`ljallangan.**

Urganch - 2010

Muallif:

Iqboloy Devonova Urdu Filologiya
fakulteti O`zbek adabiyoti kafedrası
dotsenti

Taqrizchi:

Urdu Filologiya fakulteti O`zbek
adabiyoti kafedrası dotsenti
G. Eshchonova.

Maskur qo`llanmada BT va STI talabalarining amaliy mashg`ulot jarayonida
o`rganilishi lozim bo`lgan asarlar haqida so`z yuritildi.

Uslubiy qo`llanma Urdu ilmiy metodik kengashi tamonidan chop etishga tavsiya
qilingan

Kirish

Yurtimiz mustaqillikka erishgach, ta'lim-tarbiya tizimida asl milliy qadriyatlarga tayanish tobora qaror topib bormoqda va ko'ngil tarbiyasiga, ya'ni inson ma'naviyatini shakllantirishga birlamchi yumush sifatida yondashish ustuvor bo'lib bormoqda. Pedagogik tafakkurning o'zgarishi, o'z navbatida, milliy pedagogikaning maqsadi, vazifalari hamda mazmunini ham tubdan yangilashni taqozo etdi. UmumtaMim maktablari o'quv rejasida jiddiy o'zgarishlar amalga oshirildi. Har bir o'quv fani bo'yicha nimani, nimaga, qancha va qanday orgatish masalasi ko'rsatib berilgan ta'lim kontseptsiyalari ishlab chiqiddi. Ular asosida o'qitish jarayonining muayyan bosqichida talabaga etkazilishi kerak bo'Tgan hamda ular tomonidan o'zlashtirilishi shart bo'lgan bshshmpar *miqdorm* belgilab qo'yiladigan davlat ta'lim standartlari yaratildi. Shu asosda o'quv dasturlari yangilandi, ularda talabalar tomonidan egallanishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarga yangi pedagogik tafakkurga mos talqin berildi.

Butun dunyo ta'lim-tarbiya tizimida bo'layotgani kabi ta'lim kechimi insoniylashib, mazmuni insonparvarlashdi. Ta'lim jarayoni oliy maktabga kiruvchi abituriient yoki bo'lajak mutaxassis tayyorlashdan barkamol shaxs shakllantirish, sogTom ma'naviyatli odamni tarbiyalashday keng qamrovli maqsadga yo'naltirildi. Talaba o'zgalar tomonidan o'qitilishi kerak bo'lgan ta'lim ob'ektidan o'qitish va tarbiyalash kechimida o'zi bevosita faol ishtirok etadigan sub'ekt darajasiga ko'garilmoqtsa. Ya'ni tarbiyalanuvchi xuddi o'qituvchi singari dars jarayonining ijrochisi^ aylanib bormoqda. .

Insoniy kamolotni ta'minlashda talabalarlarning o'z ishtiroki, ularning bilim olish va tarbiyalanish yo'lida bevosita qatnashishi masalasi yangilanayotgan milliy pedagogikada dolzarb ahamiyat kasb etyapti. Bugungi kunda ochun pedagogika ilmi va amaliyotida hech qanday ta'lim-tarbiya tizimi hech kimni tarbiyalash va unga ilm berishga qodir emasligi anglab etildi. Bu tizimning vazifasi talabalardagi ichki imkoniyatni uyg'otib, uni o'qiydigan va tarbiyalanadigan qilishi lozimligi hamda butun kuchini shunga yo'naltirishi zarurligi tushunib olindi. Buning uchun ta'lim-tarbiya kechimida qatnashayotgan har bir bolaning ongli ehtiyoji va ichki qiziqishini uyg'otish talab qilinadi. Bunday ehtiyoj va qiziqish esa faqat mustaqil fikrli kishida bo'ladi.

Yosh avlodni mustaqil fikrlashga o'rgatish muammosi bugun o'zbekistonda davlat darajasidagi masalaga aylangan. Chunki mustaqil fikr fuqarolarning erkinligi ta'minlangan jamiyatda qaror topadi va rivojlanadi. Fikrning erkinligi jamiyatning kuchli bo'lishi

garovidir. Shuning uchun ham "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" singari davlat ahamiyatiga molik hujjatlar asosida yangilangan milliy ta'lim tizimi mustaqil fikrlaydigan, o'z qarashiga ega bo'lgan, erkin, sog'lom e'tiqodli shaxsni shakllantirish, ularda yuksak ma'naviy fazilatlarini qaror topdirish yo'lga tushib bormoqda. Talabalarni, umuman, mustaqil fikrlashga o'rgatish, xususan, maktab adabiy ta'limida imkon qadar ko'proq mustaqil fikrlashga odatlantirish masalasi milliy tarbiyashunoslik fani va amaliyoti oldidagi dolzarb ilmiy-amaliy muammoga aylandi.

Hozirgi kun talabalarini zamon talabiga mos o'qitish, tarbiyalash, rivojlantirish bilan bir qatorda taMimni ularning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etishni taqozo etmoqda. Bu jamiyatga o'z qarashlari shakllangan, keng fikrga

ega, ijodkor, qobiliyatli, egallagan bilimlarini hayotga tatbiq eta oladigan, davr talabiga mos yashash, mehnat qiladigan, madaniyatli, odob-ikromli, odamgarchilik xususiyatlariga ega bo'lgan, jismoniy jihatdan barkamol yoshlarni tarbiyalash talabini qo'ymoqda.

Dars ta'lim-tarbiya jarayonining markazi hisoblanadi. Shuning uchun ham davr talabiga mos kadrlar tayyorlashda maktabning o'ni katta ekanligi hammamizga ma'lum. Shuning uchun ham maktabda darsga alohida ahamiyat qaratiladi va o'qituvchining zamon talabiga mos dars o'tishi talab etiladi. Uzoq davrlar mobaynida dars jarayonini tashkil etish nazariyasi ishlab chiqilgan bo'lsada, uni amalga oshirishda ayrim kamchiliklargayo'l qo'yilmoqda. Masalan, talabaning o'zi mustaqil ravishda ishlashi, bilimlarni o'zi mustaqil egallab olish qobiliyati hali to'g'ri yo'lga qo'yilmagan, ya'ni, didakt olimlar ta'kidlaganidek "Yomon o'qituvchi haqiqatni beradi, yaxshi o'qituvchi esa shu haqiqatni o'zi egallab olish yo'lini ko'rsatib beradi". Dars ko'proq talabalarning mavjud bilimlarini egallashiga yo'naltiriladi. Tashqaridan qaraganda bu yondoshuv to'g'ri bo'lib ko'rinsada, bu masala atroflicha tahlil qilinganda asosan tashqi ko'rinishiga

e'tibor qaratilib, ichki tuzilishida talabalarning bilim olishi, o'y-fikrlash qobiliyati hisobga olinmaydi. O'qituvchi o'zining oldiga qo'yan maqsadiga erishish uchun harakat etadi. Talabalarning faolligi e'tiborga olinadida, biroq amalga oshirilmaydi. To'g'ri tashkil etilmagan dars talabalarning o'qish-bilish faolligini nazorat qilish imkoniyatini yarata olmaydi. Har xil metod va usullarni amalda qo'llash imkoniyati yo'q. Darsning borishidagi yo'l qo'yilayotgan kamchiliklarni nazarga olib, ko'pchilik didaktlar dars borishini mustaqil tuzib, talabaning faolligi, topqirligi, ijodkorligini ta'qiqlamaslik zarur deyishadi. Bu fikrni to'g'ri talqin etish lozim. "Ta'qiqlamaslik kerak" deganda, darsning borishini xohlagancha tashkil etaver, deb tushunmaslik kerak. Darsning borishi uning turiga, maqsadiga, mazmuniga, bolalarning imkoniyatiga qarab tashkil etilishi shart.

Jamiatimizda bo'layotgan o'zgarishlar o'qish metodikasiga nazariy va amaliy jihatdan davr talabiga mos darsni tashkil qilishni talab etmoqda. Shuning uchun ham, taniqli olimlar bilan metodistlar, ijodkor o'qituvchilar bugungi dars qanday bo'lishi kerak, u oldingi o'tilgan darsdan nimasi bilan farq qilishi lozim degan savolga javob qidirmoqda. Shundan kelib chiqib, o'quv-tarbiya jarayonining mazmuni ham yangilandi, maktabdagi ta'lim-tarbiya jarayonining sifatiga, o'quv jarayonini tashkil etishga e'tibor kuchaydi. Biroq, jamiyatdagi ayrim shaxslarning bunday holatlarga etarli darajada tayyor emasligi maktab hayotidagi tengsizlik, formalizm, ijodkorlarga e'tibor bermaslik, faqat buyruqbozlik asosida ishlashga qaratilgan maktab hayotidagi kamchiliklar hali ham uchrab turadi. Ayrim o'qituvchilar hamon ishonchli metodning o'rniga majburiy (buyruqbozlik) metodi bilan ishlab kelmoqda. Shu sababli dars va maktab hayotidagi mavjud kamchiliklarni nazarda tutib, o'qituvchilarning nazariyasi bilan amaliyotiga hamda izlanuvchan o'qituvchilarning tajribasi bilan ish faoliyatidagi yutuqlariga suyangan holda, darsdagi ta'lim-tarbiya ishidagi quyidagi ko'rinishlarni nazarda tutish va ularni imkon qadar ta'lim jarayoniga tatbiq etib borishimiz zarur.

Birinchidan, sinfda mustaqil (erkin) psixologik muhit, o'qituvchilarga hurmat-ehtirom, ishonch va ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratish;

Ikkinchidan, o'quv faoliyatining oliy motivini keltirib chiqarish, faqat talabalarga o'quv materialining ahamiyatinigina bildirib qolmasdan, ularga bilim olishning

o`qituvchi tomonidan taklif qilingan metodlariga e'tiborni qaratish;

Uchinchidan, talabalarni bilim olishini kafolatlovchi ishonchli metod va usullar bilan tanishtirish (tushuncha, o`zlashtirilgan bilimni amalda qo`lga olishga qaratilgan metod va usullar bilan tanishtirish). Bu talabalarning yaxshi o`qishiga, ta'lim-tarbiya olishida faollikka, ijodkorlikka olib boradigan foydali yo`nalishlardan biri bo`lib hisoblanadi;

To`rtinchidan, darsni talabalarning mustahkam, yaxshi bilim olishiga (bilim olish bu nazariy olgan bilimlarini hayotda qo`lga bilish degan so`z) yo`naltirish. Bu esa talabaning o`z bilim va kuchiga ishonchni yanada ortishiga olib keladi;

Beshinchidan, barcha talabalarning oliy darajada bilim olib, (Davlat ta'lim standarti asosida) uni yangi sharoitda qo`lga olish imkoniyatlariga sharoit yaratish. Darsda talabalarning ijodkorlik faoliyatini to`g`ri xulosali tashkillashtira olish va ularning o`z mehnatining mevasidan qanoatlana oladigan sharoitlar yaratish.

Hozirgi paytda darsda talaba bilan o`qituvchi o`rtasida ishonch, bir-biriga hurmat-ehтиrom, sog`lom muhit, ijodkorlik yo`nalishida birgalikda ishlash muammolari, ayniqsa, muhim bo`lib turibdi. Maktab umuman aytganda xalq maktabiga, milliy mazmuniga ega bo`ladi.

Zamonaviy darsni tashkil qilishga qaratilgan interfaol metodlar

Ta'limning muammoli suhbat, ixtiratik, tadqiqot, taqqoslash, induktiv, deduktiv metodlari- zamonaviy mustaqil tafakkur faoliyati bo`lgani uchun ham ular ta'limning mantiqiy metodlari hisoblanadi.

Suhbat metodi o`qituvchi tafakkuri mustaqilligini ta'minlashda muammoli ta'limdan keyingi asosiy metod hisoblanadi. Metodika ilmda suhbatga bag`shlangan anchagina ishlar mavjud. Jumladan, A. Tojievning "Adabiyot darslarida suhbat" qo`lmasida adabiy ta'lim samaradorligini ta'minlashda suhbat metodining o`mi va ahamiyati ochib berilgan¹. Lekin unda ta'limning oldiga davr talabi asosida boshqacha maqsadlar qo`yilgandi.

Bugun ta'limda yangi bilimlar, ma'naviy sifatlarning "kashf etilishi" o`qituvchilar ishtirokida o`qituvchi tomonidan emas, balki o`qituvchilarning o`zlari tomonidan o`qituvchi rahbarligida amalga oshirilishi talab qilinmoqda. Bunday qayta kashfiyotlar asar ustida ishlash davomida o`qituvchi va o`qituvchining jonli muloqotida, tomon ma'nodagi izlanuvchi suhbatlarda amalga oshadi. Darsda yaxshi tashkil etilgan suhbatning ahamiyati shundaki, u yosh kitobxonning o`qiganlari haqida gaplashish, unga o`z munosabatini bildirish, o`z fikrlari bilan o`rtoqlashish kabi ehtiyojlarini qondiradi. Badiiy asarni har kim o`z holicha, o`z darajasida qabul qiladi. Suhbatda ishtirok etgan o`qituvchi o`z fikrlarini muhokama qiladi, qarashlarini shakllantiradi, uni so`z bilan ifodalashga tayyorlanadi. Bu fikrning aniq va muayyan maqsadga yo`naltirilishini ta'minlaydi. Suhbat jarayonida o`qituvchida o`z fikri

aytish, uning to`g`riligiga hamsuhbatlarini ishonchirish ehtiyoji tug`iladi. o`qituvchi yoki o`rtoqlarining talablari asosida fikrini isbotlash uchun asar matnidan dalillar topa bilish, misollar keltirish ko`nikmasi shakllanadi, qochirimlar qilish va e'tirozlar bildirishga odatlanadi. Suhbat hamsuhbatni eshitish, munozarada ishtirok etishga o`rgatadi, o`qituvchida o`z bilimni chuqurlashtirishga ehtiyoj tug`diradi, qiziqishlari doirasini kengaytiradi.

Adabiy asarlarni o`rganish darslarida tashkil qilingan suhbatlar o`qituvchini nafaqat ma'lum bilimlar doirasi bilan boyitadi, tarbiyalaydi, balki aqliy faoliyat asoslarini ham o`rgatadi. Badiiy asarlarni o`rganishning barcha bosqichlarida suhbat

o`zida ko`p narsani qamrab oladigan metod hisoblanadi. Chunki u xotirani, kuzatuvchanlikni, bilish jarayonini, tasavur va hissiyotni faollashtirishga imkon beradi. Suhbat davomida har bir o`quvchining individual ishlash sur'ati shakllanadi. Adabiyot darslarida to`g`ri tashkil etilgan suhbatlarda bitta masala bo`yicha bir nechta o`quvchi, ba`zan butun sinf fikr aytadi. Buning muammoli metoddan farqi shundaki, suhbatda bolaning oldiga muammo qo`yilmaydi. o`qituvchi tomonidan bitta murakkabroq, bolalarni o`ylashga, munosabat bildirishga undaydigan mavzu o`rtaga tashlanadi va suhbat asnosida shu masala ustada birgalikda ishlanadi. o`qituvchi sinfning faoliyatini kuzata borib, uni yo`naltiradi, shu bilan birga, o`quvchilarning o`zlari ishlashlari uchun sharoit yaratadi.

Evristik metod. Bu metod evristika yunoncha izlayman, topaman degan ma'nolarni anglatadigan "peishko" so`zidan olingan bo`lib, u mahsuldor ijodiy fikrlash jarayonini tashkil qilishni. nazarda tutadi. Ta'limning mustaqil fikrlashga undashda qo`l keladigan evristik metodi o`quvchining oldiga yo`naltiruvchi masalalar qo`yish, ulami tekshirish va hal etish, aks savollar vositasida o`qitish usuli hisoblanadi. Evristik metoddan foydalanganda o`qituvchi o`quv materialining suhbat metodida foydalangan tizimini to`liq qo`llashi mumkin: Faqat uning tarkibi qo`shimcha bilim olishga yo`naltiradigan savollar bilan to`ldiriladi.

Mazkur metod tahlili shuni ko`rsatadiki, u suhbat metodida bo`lgan barcha usullarning birgalikda qo`llanilishini talab qiladi. Bunda savol-topshiriqlarning mantig`i va vaqt masalasida bir oz tafovut bo`ladi. Evristik metodda etakchilik qiladigan savollar qo`zg`otuvchi ahamiyat kasb etadi. Bunday asosdagi suhbat tizimi topshiriqni bajarish, jarayonni kuzatish, savollarga javob berish, ma'lumot olish, xulosa chiqarish va xulosalarni taqqoslash kabi yo`naltiruvchi ko`rsatmalar bilan ta'minlanganda, o`quvchilarning fikrlash va bilim olish mustakilligini anchagina ko`tarishi ma'lum bo`ladi. o`quvchilar taqqoslash, taxdil qilish, dalillar keltirish singari ish turlarini yangi vaziyatga ko`chiradilar, shu bilan birga, ma'lum umumlashmalar qiladilar, farazlarni ilgari suradilar, zarur ashyolar, materiallar to`playdilar, xulosalar chiqaradilar, ma'lum masalani hal qilish bosqichidagi o`z faoliyatini rejalashtiradilar. Bu o`qitishning yangi usullari bo`lmish bilimlarni faollashtirish, metodlarni ustma-ust qo`llash kabilarni kiritish zaruratini tug`diradi.

Tadqiqot metodi. Adabiet oqitishda o`quvchini mustaqil fikrlashga yo`naltirishda tadqiqot metodi o`quv jarayonida bir muncha qiyin bo`lgan nazariy yo`nalishdagi masalalar ko`tarilishini nazarda tutadi. Bu metodda bilim olishning nisbatan yuqori bosqichida ta'limning samarali amaliy va izlanish usullarini mustaqil ravishda qo`llash talab qilinadi. Bunda o`quvchilar dalillar to`plash, ulami to`plash,

nazariy tahlil qilish, tizimga solish, umumlashtirish va ilmiy xulosalar chiqarish kabi amaliy ishlarini bajaradilar. Tadqiqot metodining evristik metoddan farqi shunda ko`rinadiki, "kashfiyot" avaldan ajratilgan materiallar tahlilidan keyin, faktik materiallar umumlashtirilganidan so`ng amaliy ish jarayonidagi sodir bo`ladi. Bunda tadqiqot topshirig`i — o`quv-biluv faoliyatining to`liq turkumini o`quvchilar o`qituvchi rahbarligida o`zlari bajaradilar. Ya'ni ma'lumot to`plashdan tortib, uni tahlil qilish va yangi bilimlarni amaliyotda qo`llashgacha bo`lgan ishlarning barchasini o`quvchilar o`zlari mustaqil ravishda amalga oshiradilar.

o`quvchilar tomonidan faktik material to`plash tadqiqot metodining zaruriy qismlaridandir. Ma'lumki, hatto monologik metodda ham o`qituvchi tajribalar

ko'rsatadi, o'quvchilar uning natijalari bilan tanishib, kuzatish jarayonida dalillar to'playdilar. Mustaqil ravishda tajribalar o'tkazish o'quvchining bilim olishga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Shunday dalillar mavjudki, ulami dars jarayonida, ayniqsa, adabiyot darslarida kuzatib bo'lmaydi. Agar o'qituvchi o'quvchilar ixtiyoriga shunday dalillarni tavsiya etib, ulami taqqoslash, tizimga solish, umumlashtirishni topshirsa, bu bilan uning muammolik darajasi kamaymaydi. Tadqiqot metodini qo'llashda topshiriqlarning o'quvchilar tomonidan bajarilishi muhim hisoblanadi. Topshiriqlarni bajarishda ularning biror bosqichi tushib qolsa, topshiriq o'z tadqiqiyligini yo'qotadi.

Induktiv va deduktiv metod. o'quvchini mustaqil mulohaza yuritishga o'rgatishda ta'limning induktiv, deduktiv metodlarining ham o'ziga xos o'mi bor. So'nggi yillarda deduktiv ta'limga e'tibor Jsuchaydi. Bu ta'limdan induktiv yondashuvni chetlatish degani emas, albatta. Tafakkurning induktiv usullarini shakllantirmay turib, ta'limda yoki mustaqil mulohaza yuritishga o'rgatishda muvaffaqiyatlarga umid qilish mumkin emas. Induktiv yoki deduktiv metodlarni qo'llash o'rganilayotgano'quv materialining mantig'ini ajratishda, ya'ni xususiyan umumiyga yoki umumiydan xususiyan o'tishda ahamiyat kasb etadi.

Yu. Babanskiy induktiv metodni qo'llaganda o'qituvchi va o'quvchi faoliyatining quyidagi ikki varianti mavjudligini ko'rsatadi: birinchi variantda uqituvchi awal faktlarni keltiradi, tajribani, ko'rgazma materialini namoyish etadi, topshirikdarni bajarishni tashkil qiladi, o'quvchilarni asta-sekinlik bilan tushunchalarni aniqlashga, qonuniyatlarni o'zlashtirish va fikrlarni umumlashtirishga olib boradi. o'quvchilar xususiy faktlarni o'zlashtiradilar, so'ngra o'quv xarakteridagi umumlashma xulosalarni chiqaradilar. Ikkinchi variantda o'qituvchi o'quvchilarning oldiga xususiy jihatlardan umumiy holatlarga etaklovchi, umumiy xulosalarga olib keluvchi muammoli masalalarni qo'yadi. o'quvchilar faktlar ustida mustaqil ravishda mulohaza yuritadilar va xulosalar chiqarib, umumlashmalar qiladilar¹.

Bugungi adabiy ta'limda o'quvchi ma'naviy kamolotini ta'minlash maqsadida mustaqil fikrlash va erkin faoliyatga undash etakchilik qilayotgan ekan, induktiv metodning birinchi varianti mutlaqo to'g'ri kelmaydi. Ikkinchi variant — o'qituvchining xususiy jihatlardan umumiy holatlarga etaklovchi, umumiy xulosalarga olib keluvchi muammoli masalalarni qo'yishi va o'quvchilarning haqiqatlar ustida mustaqil ravishda mulohaza yuritib, xulosalar chiqarib, umumlashmalar qilishi — ko'proq samara beradi.

Induktiv metodning zaif tomonlari shundan iboratki, unda yangi mavzuni o'zlashtirishda deduktivga nisbatan ko'proq vaqt talab qilinadi. Bu metod o'quvchining mavhum tafakkurini o'stirishga xizmat qiladi. Maktab adabiy ta'limida o'quvchilarni mustaqil fikrlashga odatlantirish uchun quyi sinfiarda induktiv metodidan foydalanib, sinflar yuqorilab borgani sari asta-sekinlik bilan deduktivga o'tish o'rindi bo'ladi. Chunki quyi sinflarda narsa, hodisa va bilimlarning ko'proq xususiy tomonlari o'rganiladi.

Bugun milliy pedagogikaga "**interfaol metodlar**" nomi bilan kirib kelayotgan metodlar o'quvchi-o'qituvchidan ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarflamay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishish maqsadini nazarda tutadi. Qisqa vaqt mobaynida zarur nazariy bilimlarni o'quvchiga etkazish, unda ma'lum faoliyat yuzasidan ko'nikma, malaka hosil qilish, shu bilan birga, bilim, ko'nikma va

malakalarni nazorat qilish hamda baholash o`qituvchidan yuksak pedagogik mahorat va chaqqonlikni talab qiladi. Bugungi kunda qator rivojlangan mamlakatlarda qo`llanilayotgan **"Aqliy hujum"**, **"6x6x6"**, **"Klaster"**, **"Qarorlar shajarasi"** singari metodlarning ayrimlaridan adabiy ta'lim jarayonidagi badiiy asar tahlilida ham foydalanish mumkin. Aslini olganda, bu metodlarning ta'limdagi mantiqiy metodlardan farqi uncha katta emas. Ularning barchasi zahirida muammoli metodning unsurlari mavjud.

Masalan, "Aqliy hujum" metodining maqsadi o`qituvchilarning dars jarayonidagi faolligini oshirish, ularni erkin, mustaqil mulohaza yuritishga undash, hammani bir xil qolipda fikrlashdan qutqarish, ma'lum mavzu yuzasidan har xil fikrlarni to`plash va masalaga ijodiy yondashuvni ta'minlashdan iborat. Bu metoddan foydalanilganda savol yoki topshiriqlar yordamida muammoga "hujum" qilinadi. o`qituvchilar o`z oldilariga qo`yilgan muayyan masala bo`yicha mulohaza yuritadilar. Masala atrofida ishlayotgan, mulohaza yuritayotgan har bir o`qituvchi tomonidan aytilgan fikrni rag`batlantirish, qayd etib borish, har bir ishtirokchining erkinligini ta'minlash, bildirilgan fikrlar mualliflari tomonidan asoslanishini talab qilish, toki fikrlar tugamaguncha bahsni davom ettirish talab qilinadi. o`qituvchilar tomonidan aytilayotgan fikrlarni alohida baholash, ularni tanqid qilish yoki fikrlardan kulish ta'qiqlanadi.

"6x6x6 metodi. Atsabiy ta'lim jarayonida foydalanish mumkin bo`lgan metodlarning yana biri "6x6x6" metodidir. Adabiy asarlar tahlili jarayonida mazkur metoddan foydalanishda adabiyot o`qituvchisidan pedagogik mahorat va ziyraklik, guruhlarini oqilona shakllantira bilish talab qilinadi. Bu metodda sinfdagi o`qituvchilar

oltita-oltitadan olti guruhga bo`linadi. Jami 36 o`qituvchi ishtirok etadi. Guruhlarga muayyan nomlar beriladi. Dars mavzusi e'lon qilinib, ma'lum vaqt belgilanadi. o`qituvchilar mavzu atrofida bahslashadilar, o`z munosabatlarini bildiradilar. Mavzu bo`yicha belgilangan vaqt yakunlangach o`qituvchi guruhlarining a'zolarini almashtiradi. Yangi guruhda avvalgi guruhdan bitta vakil qoladi va u o`z guruhining mavzu yuzasidan chiqargan xulosalarini yangi guruhga bayon etadi. Yangi guruh a'zolari avvalgi guruhning fikr va xulosalarini o`rganadilar, unga o`z munosabatlarini bildiradilar. Shu tariqa qisqa vaqt oralig`ida o`qituvchilar tomonidan ham mavzu yuzasidan fikr bildiriladi, ham bu fikrlar ularning o`zlari tomonidan tahlil qilinadi.

Sinfdagi o`qituvchilardan kichik guruhlar tashkil etishda quyidagilarga amal qilinadi: 1. Guruhlar o`qituvchi tomonidan belgilanadi. 2. Guruhga rahbarlik qila oladigan o`qituvchi va guruh a'zolari oldindan aniq belgilab olinadi. 3. Har bir guruhga zehinli va qobiliyatli hamda bo`shroq o`zlashtiradigan o`qituvchilar, imkon qadar, teng taqsimlashga harkat qilinadi. Guruhlar bir-biriga munosib a'zolar bilan to`ldiriladi va vazifalari belgilanadi. 4. Guruh rahbari va a'zolariga vazifalari tushuntiriladi. 5. Har bir guruh doira shaklida o`tirishi, guruhning har bir a'zosi bir-birini ko`rib turishi shart. 6. Ish jarayonida har bir guruhning faoliyatiga, g`oyalariga e'tibor berib boriladi. Yaxshi g`oya egalari rag`batlantiriladi.

. Bunday guruhlarini tashkil etishdan avval: o`qituvchilarning shu ishni bajarishga bilim va malakalari etarligiga ishonch hosil qilish; guruhlariga aniq yo'l-yo`riqlar ko`rsatish; vazifaning bajarilishi uchun etarli vaqt ajratish; o'z vazifasini vaqtdan ilgari bajargan guruhning bandligini ta'minlashga tayyor bo`lish; qo`yiladigan masala murakkab bo`lganda guruh a'zolari sonini kengaytirish; baholash va mukofotlash

jarayonining guruh a'zolariga ta'siriga tayyorlanish; kuchli guruhlarini mukofotlash; bajarilgan ish natijasini qanday topshirish yo'llari haqida o'ylab ko'rish va ma'lum qilish; jamoaning erkinligiga imkoniyat yaratish kerak bo'ladi.

Bu metoddan foydalanilganda o'quvchilar guruhini bunday aralash tarzda tashkil etishning o'ziga yarasha salbiy tamonlari ham mavjud. Ma'lumki aralash guruhlarda ko'proq kuchli o'quvchilar ishlaydi. o'rtacha va bo'sh o'zlashtiradigan o'quvchilar ular oldida "Yumilib" qoladilar. Chunki vaqt tig'iz bo'ladi. Demak hamma o'quvchilar darsda faol qatnashmaydilar. Shuning uchun sinfdagi kuchli, tez fikrlaydigan, tez ishlaydigan, mazkur o'quv fanini yaxshi ko'radigan o'quvchilarni alohida, yaxshilarni alohida, o'rtachalarni alohida va sekin fikrlaydiganlarni alohida guruhlashtirib, har bir guruhga o'zining imkoniyati doirasidagi vazifani bcrish ham

mumkin. MaMumki, o'quvchilar o'zlariga o'xshagan, bilim darajasi bir xil bo'lgan sinfdoshlari bilan yaqin bo'ladilar. o'z davralarida "ochiladi"lar. Bu oehilish ularda shaxslik sifatlarining shakllanishiga ko'maklashadi. Guruhlarning bilimi baholanayotganda urg'u berilgan topshiriqning qiyinlik darajasiga qaratiladi, Hamma guruh uchun ajratilgan vaqt bir xil, lekin topshiriqlarning darajasi har xil. Gap shundaki, hamma o'quvchilar belgilangan vaqt oralig'ida o'z imkoniyatlari doirasidagi vazifani muvaffaqiyatli udsalaydilar va g'alaba nashidasini suradilar. Bu nashida insonning ruhiy kamolotini ta'minlaydi.

"Aqliy hujum" — o'quv muammolarini hal qilishda keng qo'llaniladigan metod. U qatnashchilarning tasawurlari, bor bilimi va imkoniyatlaridan unumli foydalanishga yo'naltirilgan. Mazkur metod o'quvchi oldiga qo'yilgan har qanday muammoli masalaga ko'p sonli echimlar topishga imkon yaratadi. Aqliy hujumdan foydalanilganda quyidagi qoidalarga amal qilinadi: 1. o'ylash jarayonida hech qanday baholashlarga yo'l qo'yilmaydi. Agar o'ylash jarayonidagi g'oyalar baholanadigan bo'lsa, qatnashchilar manfaatdorlik yo'lga tushadilar va o'z fikr-g'oyalarini himoya qilishga berilib ketib, yangi fikr aytish, kashfiyotlar qilishni o'ylamay qo'yadilar. 2. Har bir o'quvchi bitta masala yuzasidan o'ta xilma-xil mulohazalar topishga yo'naltiriladi. o'quvchilarda kutilmagan fikr, favqulodda g'oyalar tug'ilmasa, qatnashchilar o'z fikrlarini qayta qo'llashga, bir-birlarini takrorlashga majbur bo'ladilar. 3. G'oya va fikrlarning miqdori rag'batlantiriladi. Ma'lumki, miqtsor, odatda, o'sib, sifatga aylanadi. Tezkor izchillikda katta miqdordagi g'oyalar paydo bo'lganda ularni baholash mumkin. Qatnashchilarning o'z tasawurlariga erk berishiga imkoniyat yaratilishi kerak. Bu erkinlik natijasida yaxshi, betakror va kuchli g'oyalar tug'iladi. 4. Har bir o'quvchi o'zgalar g'oyasiga asoslanishi va ularni o'zgartirishi mumkin. Chunki fikrdan fikr tug'iladi. Oldin taklif etilgan g'oyalarni biriktirish yoki o'zgartirish ko'pincha asos bo'lgan fikrdan kuchliroq, yaxshiroq g'oyalarni keltirib chiqaradi.

"Aqliy hujum" metodidan foydalanish jarayoni quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

1. o'quvchilarerkino'tiradiganqilibjoylashtiriladi
2. Goya va fikrlarni yozish uchun darstaxta yoki varaqlar gayyorlab qo'yiladi.
3. Hal etilishi lozim bo'lgan muammo aniqlanadi.
4. Ish jarayoni belgilab olinadi: a) g'oyalar baholanmaydi; b) fikrlashga to'liq erk beriladi; v) g'oyalar ko'p bo'lishiga (miqtsorga) intilinadi; g) o'quvchilar faoliyati

- "ilg`ab oling", "ilib oling", "g`oyalarga asoslaning", "qo`shing", "kengaytiring", "o`zgartiring" singari chaqiriqlarga asosan uyushtiriladi;
5. Qo`yilgan muammo yuzasidan fikrlar so`raladi va yozib boriladi;
 6. Uzgalarining fikrlaridan kulish, kinoyali sharhlar vamayna qilishlarga aslo yo`l qo`yilmaydi;
 7. Varaqlar g`oya va fikrlar bilan to`lganda ular ko`rinarli erga osib qo`yiladi;
 8. G`oyalar tugamaguncha ish davom etgirilaveriladi;
 9. Shundan so`ng yangi, kuchli, asosli va original g`oyalar o`qituvchi tomonidgn rag`batlantiriladi, baholanadi.

Mavzu: Bolalar folklorining janriy tuzilishi Mashg`ulotning texnologik xaritasi

Mashgulotning borishi:

Reja:

1. Bolalar folklorini janriy tuzilishi.
2. Har bir janrning o`ziga xos xususiyatlari
3. Folklor asarlarining bola tarbiyasidagi o`rni.

1- rejada xalq og`zaki ijodiga xos xususiyatlar va bolalar folklorining janriy tuzilishi haqida ya`ni bolalar qo`shiqlari , ovutmochoqlar, erkalamachoqlar, chandishlar tegishmochoqlar, masqaramalar haqida ma`lumot beriladi.

2 – rejada har bir janrning farqli jihatlari o`ziga xos xususiyatlari ko`rsatib beriladi.

3 – rejada esa folklor asarlarining bola tarbiyasidagi o`rni va bola nutqiy foylatining shakllanishida folklor asarlarining ahamiyati haqida to`xtalinadi.

Mashg`ulotning yozish jarayonida quyidagi adabiyotlarga murojat qilish mumkin.

1. Safarov O. O`zbek xalq og`zaki ijodi. T. Musiqi 2010.
2. Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti va folklore. T. Adabiyot jamg`armasi nashryoti. 2006.

Maqsad: Talabalarga bolalar folklorini janriy tuzilishi, har bir janrning o`ziga xos xususiyati, shuningdek ushbu janrlarning ya'ni ertak, afsona, maqol, matal, topishmoq va xalq qo`shiqlarini bola tarbiyasidagi o`rni ochib beriladi. Va yuqoridagilar orqali talabalarda nazariy bilimlar ahloqiy fazilatlar, estetik tuyg`ular orqali ma'naviy tarbiya shakllantiriladi. Mashgulot turi: amaliy

Mashgulotda qo`llaniladigan innovatsion texnologiya 6x6 va Bumerang metodlari: tarkatma mantiar, 10 dona yozuv qogoz, markerlar, kompyuter, ekran, proektor Baholar asosi:

Mavzu byyicha ilmiy-amaliy asoslangan xulosalarning keltirilganlik darajasiga qarab 25% gacha

Mavzuning mantiqiy asosini ilmiy-nazariy kontseptsiyalar hamda amaliy faoliyat nuqtai-nazaridan yoritib berilganlik darajasiga qarab 25% gacha

Mavzu byyicha shaxsiy fikr va nuqtai-nazarlarning keltirilishi hamda ulaming

asoslanganlik darajasiga qarab 25% gacha

Mavzu byyicha amaliy faoliyat kynikma va malaklarining shakllanganlik darajasiga qarab 25% gacha

Mavzular taqdimoti quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

- Guruxlar bellashuvi

Kichik ma'ruza

Teatrlashtirilgan lavha

Test va krasvorddan foydalanish *Eslatma.*

1. *Topshiriqlar belgilangan muddatlarda taqdim qilinishi shart.*

2.Mavzu yuzasidan shaxsiy fikrlaringizni shakllantiring.

3.O'z imkoniyatlaringizni aniq baholagan holda o'z-o'zingizni takomilashtirish dasturini ishlab chiqing. 4.O'z fikrlanngizni aniq dalillarni keltirgan holda asoslang.

"6x6x6 metodi. Atsabiy **ta'lim** jarayonida foydalanish mumkin bo'lgan metodlarning yana biri "6x6x6" metodidir. Adabiy asarlar tahlili jarayonida mazkur metoddan foydalanishda adabiyot o'qituvchisidan pedagogik mahorat va ziyraklik, guruhlarini oqilona shakllantira bilish talab qilinadi. Bu metodda sinfdagi o'quvchilar oltita-oltitadan olti guruhga bo'linadi. Jami 36 o'quvchi ishtirok etadi. Guruhlarga muayyan nomlar beriladi. Dars mavzusi e'lon qilinib, ma'lum vaqt belgilanadi. o'quvchilar mavzu atrofida bahslashadilar, o'z munosabatlarini bildiradilar.

Mavzu bo'yicha belgilangan vaqt yakunlangach o'qituvchi guruhlarning a'zolarini almashtiradi. Yangi guruhda awalgi guruhdan bitta vakil qoladi va u o'z guruhining mavzu yuzasidan chiqargan xulosalarini yangi guruhga bayon etadi. Yangi guruh a'zolari awalgi guruhning fikr va xulosalarini o'rganadilar, unga o'z munosabatlarini bildiradilar. Shu tariqa qisqa vaqt oralig'ida o'quvchilar tomonidan ham mavzu yuzasidan fikr bildiriladi, ham bu fikrlar ularning o'zlari tomonidan tahlil qilinadi.

Sinfdagi o'quvchilardan kichik guruhlar tashkil etishda quyidagilarga amal qilinadi: 1. Guruhlar o'qituvchi tomonidan belgilanadi. 2. Guruhga rahbarlik qila oladigan o'quvchi va guruh a'zolari oldindan aniq belgilab olinadi. 3. Har bir guruhga zehnlil va qobiliyatli hamda bo'shroq o'zlashtiradigan o'quvchilar, imkon qadar, teng taqsimlashga harkat qilinadi. Guruhlar bir-biriga munosib a'zolar bilan to'ldiriladi va vazifalari belgilanadi. 4. Guruh rahbari va a'zolariga vazifalari tushuntiriladi. 5. Har bir guruh doira shaklida o'tirishi, guruhning har bir a'zosi bir-birini ko'rib turishi shart. 6. Ish jarayonida har bir guruhning faoliyatiga, g'oyalariga e'tibor berib boriladi. Yaxshi g'oya egalari rag'batlantiriladi.

Bunday guruhlarini tashkil etishdan awal: o'quvchilarning shu ishni bajarishga bilim va malakalari etarliligiga ishonch hosil qilish; guruhlarga aniq yo'l-yo'riqlar ko'rsatish; vazifaning bajarilishi uchun etarli vaqt ajratish; o'z vazifasini vaqtdan ilgari bajargan guruhning bandligini ta'minlashga tayyor bo'lish; qo'yiladigan masala murakkab bo'lganda guruh a'zolari sonini kengaytirish; baholash va mukofotlash jarayonining guruh a'zolariga ta'siriga

tayyorlanish; kuchli guruhlarini mukofotlash; bajarilgan ish natijasini qanday topshirish yoilari haqida o'ylab ko'rish va maium qilish; jamoaning erkinligiga imkoniyat yaratish kerak boiadi.

Bu metoddan foydalanilganda o'quvchilar guruhini bunday aralash tarzda tashkil

etishning o'ziga yarasha salbiy tamonlari ham mavjud. Maiumki aralash guruhlarda ko'proq kuchli o'quvchila ishlaydi. o'rtacha va bo'sh o'zlashtiradigan o'quvchilar ular oldida "Yumilib" qoladilar. Chunki vaqt tig'iz boiadi. Demak hamma o'quvchilar darsda faol qatnashmaydilar. Shuning uchun sinfdagi kuchli, tez fikrlaydigan, tez ishlaydigan, mazkur o'quv fanini yaxshi ko'radigan o'quvchilarni alohida, yaxshilarni alohida, o'rtachalarni alohida va sekin fikrlaydiganlarni alohida guruhlashtirib, har bir guruhga o'zining imkoniyati doirasidagi vazifani berish ham mumkin. Maiumki, o'quvchilar o'zlariga o'xshagan, bilim darajasi bir xil bo'lgan sinfdoshlari bilan yaqin boiadilar. O'z davrlarida ochiladi. Bu ochilish ularda shaxslik sifatlarining shakllanishiga ko'maklashadi. Guruhlarning bilimi baholanayotganda urg'u, berilgan topshiriqning qiyinlik darajasiga qaratiladi. Hamma guruh uchun ajratilgan vaqt bir xil, lekin topshiriqlarning darajasi har xil. Gap shundaki, hamma o'quvchilar belgilangan vaqt oralig'ida o'z imkoniyatlari doirasidagi vazifani muvaffaqiyatli udsalaydilar va g'alaba nashidasini suradilar. Bu nashida insonning ruhiy kamolotini ta'minlaydi.

Mavzu: Bolalar folklorining janriy tuzilishi Mashg'ulotning texnologik xaritasi

Maqsad: Talabalarga bolalar folklorini janriy tuzilishi, har bir janrning o'ziga xos xususiyati, shuningdek ushbu janrlarning ya'ni ertak, afsona, maqol, matal, topishmoq va xalq qo'shiqlarini bola tarbiyasidagi o'rni ochib beriladi. Va yuqoridagilar orqali talabalarda nazariy bilimlar ahloqiy fazilatlar, estetik tuyg'ular orqali ma'naviy tarbiya shakllantiriladi. **Mashg'ulot turi: amaliy**

Mashg'ulotda qo'llaniladigan innovatsion texnologiya 6x6 va Bumerang metodlari: tarkatma mantlar, 10 dona yozuv qog'oz, markerlar, kompyuter, ekran, proektor Baholar asosi:

- Mavzu byyicha ilmiy-amaliy asoslangan xulosalarning keltirilganlik darajasiga qarab 25% gacha

Mavzuning mantiqiy asosini ilmiy-nazariy kontseptsiyalar hamda amaliy faoliyat nuqtai-nazaridan yoritib berilganlik darajasiga qarab 25% gacha

Mavzu byyicha shaxsiy fikr va nuqtai-nazarlarning keltirilishi hamda ulaming asoslanganlik darajasiga qarab 25% gacha

Mavzu byyicha amaliy faoliyat kynikma va malaklarining shakllanganlik darajasiga qarab 25% gacha

Mavzular taqdimoti quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

Guruxlar bellashuvi

Kichik ma'ruza

Teatrlashtirilgan lavha

Test va krasvorddan foydalanish

Eslatma. 1 Topshiriqlar belgilangan muddatlarda taqdim

2.Mavzu yuzasidan shaxsiy fikrlaringizni shakllantiring

4. O'z fikrlanngizm aniq dalillarni keltirgan holda asoslang.

O'quv vaqti: 80 minut	Talaba soni
O'quv mashg'ulotining tuzilishi Amaliy mashg'ulot rejasi	1. Xalq og'zaki ijodining o'ziga hos xususiyatlari 2. Folklor janrlari to'g'risida

	3. Bolalar folklorining janriy xususiyatlari 4. Bolalar o`yin folklori haqida
<i>O`quv mashg`ulotining maqsadi : Talabalarning xalq og`zaki ijodi fanining taraqqiyoti, folklor janrlari va unga xos xususiyatlar, bolalar folklori bo`yicha olgan ma`lumotlarini to`ldirish va bilimlarini baholash.</i>	
Pedagogik vazifalar: Talabalar tomonidan o`zlashtirilgan bilimlarni chuqurlashtirish va baholash	O`quv faoliyatining natijalari: Talabalarni mavzu bo`yicha bilimlarini ko`rsatadilar. Axborotlarni reja asosida ochib beradilar.
Ta`lim usullari:	“Klaster”, T jadval
O`quv faoliyatini tashkil qilish shakli	guruxiy
Ta`lim vositalari	marker, flipchart, topshiriqlar
Qayta aloqa usullari va vositalari	Savol javob

O`quv mashg`ulotining texnologik xaritasi

Ishlash bosqichlari, vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O`qituvchining	Talabaning
1 bosqich O`quv xujjatlarini To`ldirish, davomat olish 5 daq. kirish 5daq	1 Talabalarni ped. Texnologiya talablari asosida 4 ta guruxga bo`ladi va topshiriqlar beradi. <b>1 guruxga topshiriq</b> xalq og`zaki ijodining maqsad vazifalari va unga hos xususiyatlar sxemalar yordamida yoritib bering 2 guruxga topshiriq xalq og`zaki ijodi janrlariga izox bering <b>3 guruxga</b> topshiriq Bolalar folklorining janriy xususiyatlariga ta`rif bering va uni jadaval asosida ko`rsatib bering <b>4 guruxga topshiriq</b> Bolalar o`yin folkloriga ta`rif bering va ulardan namunalar keltiring	Talabga muvofiq guruxlarga bo`linadilar va topshirig`larni qabul qilib oladilar.
2 bosqich Asosiy 20daq. Davomida guruxlarda	Xar bir gurux topshiriq ustida ishlashini nazorat qilib zaruriy ko`rsatmalarni va yordamini berib boradi.	Xar bir gurux o`z topshirig`i ustida ishlaydi, markerlar yordamida klaster, sxema yoki jadvalini chizib to`ldirib boradi.

ishlash, 30daq. davomida xar bir gurux 7 daq chiqish qiladi.		Guruxlardan 2ta (va bundan ortiq) ishtirokchi topshiriq bo'yicha chiqish qiladilar
3 bosqich. Talabalarni baholash 20 daq.	Mavzu bo'yicha xulosa qilish. Xar bir gurux faoliyati tavsiflanada va guruxning xar bir ishtirokchisi qanday baxolanganligi aytiladi	Xar bir talaba o'z faoliyati baxosini eshitadi va e'tirozi bo'lsa aytadi. Mashg'ulot yuzasidan muloxazalari bo'lsa bildirishi mumkin.

Xalq ertaklari

Dars rejasi:

- 1. Ertak janriga ta'rif.**
- 2. Ertak turlari va ularning farqlanishi.**
- 3. Bolalarning yosh xususiyatlariga qarab ertaklarning taqsimlash.**

1 – rejada ertak janriga ta'rif berilib o'ziga xos jihatlari ochib beriladi.

2 – rejada ertak turlari: hayvonlar haqida ertaklar, sehrli fantastic ertaklar, maishiy va hajviy ertaklar haqida ma'lumot beriladi.

3 – rejada esa bolalarning yosh xususiyatlariga qarab tavsiya etiladigan ertaklar va ularning farqli jihatlari haqida to'xtalinadi.

Mashg'ulotning yozish jarayonida quyidagi adabiyotlarga murojat qilish mumkin.

3. Safarov O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. T. Musiqi 2010.

4. Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti va folklore. T. Adabiyot jamg'armasi nashryoti. 2006.

Bolalar adabiyoti va folklore fanidan "Ertaklar" mavzusini o'tishda "Aqliy hujm" metodidan foydalangan holda o'tisg uchun o'quvchini aqliy muvozanatdah chiqaradigan quyidagi savol topshiriqlarai berish mumkin.

"Ertaklar nima uchun yahshilikka etaklar"- deyilishiga sabab nimada deb o'ylaysiz?

"Oz xalqiga amir amaldorlariga zulum qilib vazirlarni o'limga buyurgan shox timsoli" qaysi ertakda keltirilgan?

"Vazirlarni o'limdan qutqarib o'zi falokatga yoliqqan Husnobod" haqida nimalar bilasiz?

"Bu boyliklarni faqat o'zim topdim barchasini o'zim qildim, shuning uchun hammasi meniki unda boshqalarning o'rni yo'q" deyidigan shox timsoli qaysi ertakda berilgan?

Hayotda shunga o'hshash otalarni uchratganmisiz?

"Ilusnobod" shaxrini bunyodga kelishiga nimalar sabab bo'ldi deb o'ylaysiz?

"Erni er qiladigan ham xotin, qaro er qiladigan ham xotin" maqoli haqida nimalar deya olasiz?

Maktab yoshidagi kichik bolalarga qanday ertaklarni tavsiya etish mumkin?

Jahon bolalar adabiyotidan qanday mashhur ertakchilarni bilasiz?

Manashu kabi savol topshiriqlar o`quvchilarni ruhiy loqaydlikdan chiqaradi, ularni har birini o`zicha o`ylashga o`z munosabatini bildirishga majbur qiladi. Yana shu narsa haqiqatki bu savol topshiriqlarning hammasiga guruhdagi barcha talaba javob berishi shart emas. Qolganlar ular haqida mulohaza yuritadilar fikriy loqaydlikdan chiqadilar.

O`quv vaqti: 80 minut	Talaba soni
O`quv mashg`ulotining tuzilishi Amaliy mashg`ulot rejasi	1. Ertak janriga ta`rif 2. Ertak turlari va ularning farqlanishi 3. Bolalarning yosh xususiyatlariga qarab ertaklarning taqsimlanishi 4. Bola tarbiyasida ertakning o`rni
<i>O`quv mashg`ulotining maqsadi : Talabalarning ertak va uning tuzilishiga ko`ra turlari va ertakning bola tarbiyasidagi o`rni bo`yicha olgan ma`lumotlarini to`ldirish va bilimlarini baholash.</i>	
Pedagogik vazifalar: Talabalar tomonidan o`zlashtirilgan bilimlarni chuqurlashtirish va baholash	O`quv faoliyatining natijalari: O`quv faoliyatining natijalari: Talabalarni mavzu bo`yicha bilimlarini ko`rsatadilar. Axborotlarni reja asosida ochib beradilar
Ta`lim usullari:	"Kanday?", "Pinbord", sxema, kontseptual jadval
O`quv faoliyatini tashkil qilish shakli	guruxiy
Ta`lim vositalari	marker, flipchart, topshiriqlar
Qayta aloqa usullari va vositalari	Savol javob

O`quv mashg`ulotining texnologik xaritasi

Ishlash bosqichlari, vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O`qituvchining	Talabaning
1 bosqich O`quv xujjatlarini To`ldirish, davomat olish 5 daq.	1 Talabalarni ped. Texnologiya talablari asosida 4 ta guruxga bo`ladi va topshiriqlar beradi. <b>1 guruxga topshiriq</b> Ertak janriga ta`rif bering va uni tuzilishiga sxema asosida	Talabga muvofiq guruxlarga bo`linadilar va topshirig`larni qabul qilib oladilar

kirish 5daq	tavsif bering 2 guruxga topshiriq Ertaklarning tuzilishiga ko`ra turlarini va uni farqlanishini izohlab “Pinbord” texnologiyasi yordamida tasniflang</p> <p><b>3 guruxga topshiriq</b></p> <p>Ertaklarning tuzilishiga ko`ra farqlanishini kontseptual jadvalga tushiring 4 guruxga topshiriq Bola tarbiyasidagi ertak o`rnini ko`rsatib bering. Ertak asosida sahna ko`rinishi namoyish qiling	
2 bosqich Asosiy 20daq. Davomida guruxlarda ishlash, 30daq davomida xar bir gurux 7 daq chiqish qiladi.	Xar bir gurux topshiriq ustida ishlashini nazorat qilib zaruriy ko`rsatmalarni va yordamini berib boradi.	Xar bir gurux o`z topshirig`i ustida ishlaydi, markerlar yordamida klaster, sxema yoki jadvalini chizib to`ldirib boradi. Guruxlardan 2ta (va bundan ortiq) ishtirokchi topshiriq bo`yicha chiqish qiladilar
3 bosqich. Talabalarni baholash 20 daq.	Mavzu bo`yicha xulosa qilish. Xar bir gurux faoliyati tavsiflanada va guruxning xar bir ishtirokchisi qanday baxolanganligi aytiladi	Xar bir talaba o`z faoliyati baxosini eshitadi va e`tirozi bo`lsa aytadi. Mashg`ulot yuzasidan muloxazalari bo`lsa bildirishi mumkin.

Xalq maqollari

Dars rejasi:

1. Maqol janriga ta`rif.
2. Maqollar tasnifi.
3. Maqol va topish,oqning bola tarbiyasidagi o`rni.

- 1- rejada xalqaro janrlardan biri bo`lgan maqol janriga ta`rif beriladi va uning boshqa janrlardan farq qiluvchi jihatlari to`g`risida ma`lumot beriladi.
- 2- Rejada maqollar tasnifi: alfavit, tuzilishiga ko`ra, poyetik va tarixiy tasniflar haqida to`xtalinadi.
- 3- Rejada topishmoq janri haqida ma`lumot berilib, uning maqol janri bilan farqli va o`xshash jihatlari to`g`risida fikr yuritiladi.

Mashg'ulotning yozish jarayonida quyidagi adabiyotlarga murojat qilish mumkin.

5. Safarov O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. T. Musiqi 2010.
6. Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti va folklore. T. Adabiyot jamg'armasi nashryoti. 2006.

O'quv vaqti: 80 minut	Talaba soni
O'quv mashg'ulotining tuzilishi Amaliy mashg'ulot rejasi	1. Maqol janriga ta'rif 2. Maqollar tasnifi 3. Topishmoqqa xos xususiyatlar 4. Maqol va topishmoqlarning bola tarbiyasidagi o'rn
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi : Talabalarning maqol va topishmoq janri bo'yicha olgan ma'lumotlarini to'ldirish va bilimlarini baholash.</i>	
Pedagogik vazifalar: Talabalar tomonidan o'zlashtirilgan bilimlarni chuqurlashtirish va baholash	O'quv faoliyatining natijalari: Talabalarni mavzu bo'yicha bilimlarini ko'rsatadilar. Axborotlarni reja asosida ochib beradilar
Ta'lim usullari:	“Elpig'ich”, kontseptual jadval, musobaqa
O'quv faoliyatini tashkil qilish shakli	guruxiy
Ta'lim vositalari	marker, flipchart, topshiriqlar
Qayta aloqa usullari va vositalari	Savol javob

O'quv mashg'ulotining texnologik xaritasi

Ishlash bosqichlari, vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchining	Talabaning
1 bosqich O'quv xujjatlarini To'ldirish, davomat olish 5 daq. kirish 5daq)	1 Talabalarni ped. Texnologiya talablari asosida 4 ta guruxga bo'ladi va topshiriqlar beradi. 1 guruxga topshiriq Maqol janriga ta'rif uning xususiyatlarini ochib berish 2 guruxga topshiriq Maqollar tasnifi va ularning farqlanishini “Elpig'ich” texnologiyasi yordamida yoritib bering 3 guruxga topshiriq Diqqat turlari Topishmoq janriga tariff va uni xususiyatlarini ko'rsatish maqol va topishmoqlar bo'yicha kontseptual jadval tuzing	Talabga muvofiq guruxlarga bo'linadilar va topshirig'larni qabul qilib oladilar

